



## TASAVVUFNING MOHIYATI VA UNING ISLOM FALSAFASIDAGI O'RNI

Gulbahor Namozova Muzaffarovna

Oriental universiteti

Uzluksiz ta'lim pedagogikasi kafedrası katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17046744>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tasavvufning kelib chiqishi, uning mohiyati va islom falsafasi rivojidadagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tasavvufning asosiy g'oyalari, uning ma'naviy-ma'rifiy ta'siri, shuningdek, Sharq va G'arb tafakkuridagi falsafiy ahamiyati yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** tasavvuf, islom falsafasi, tariqat, ma'rifat, ruhiy kamolot, ilohiy muhabbat.

**Abstract:** This article analyzes the origins of Sufism, its essence, and its role in the development of Islamic philosophy. The core ideas of Sufism, its spiritual and educational influence, as well as its philosophical significance in both Eastern and Western thought are discussed.

**Keywords:** Sufism, Islamic philosophy, tariqa, ma'rifa, spiritual perfection, divine love.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются происхождение суфизма, его сущность и роль в развитии исламской философии. Анализируются основные идеи суфизма, его духовно-просветительское влияние, а также философское значение в восточной и западной мысли.

**Ключевые слова:** суфизм, исламская философия, тарикат, ма'рифат, духовное совершенство, божественная любовь.

Islom dini insoniyat tarixida nafaqat diniy hayot, balki falsafiy tafakkur, madaniyat va ma'naviyat rivojida ham o'ziga xos o'rin egallagan. Qur'oni Karim va Hadisi sharif asosida shakllangan islom falsafasi insonni nafaqat tashqi amallar orqali, balki ichki dunyosi, ruhiyati va ma'naviy kamoloti orqali ham tarbiyalashni maqsad qilgan. Shu ma'noda tasavvuf islom falsafasining eng chuqur, nozik va ta'sirchan yo'nalishlaridan biri sifatida yuzaga kelgan. U insonning qalb pokligi, Allohga muhabbat va ruhiy yuksalishni asosiy maqsad qilib qo'yadi.

Tasavvuf atamasi ilk bor VIII asrda musulmon dunyosida shakllana boshlagan bo'lib, uning asoschilari zohidlik, taqvo va dunyo lazzatlaridan voz kechish g'oyalarini ilgari surganlar. "Suf" so'zi jun matodan tayyorlangan kiyimni anglatadi va dastlabki so'fiylarning oddiy, kamtarona hayotini ifodalagan. Shundan keyin tasavvuf tushunchasi asta-sekin kengayib, inson ruhiyatining chuqur qatlamlarini o'rganishga qaratilgan falsafiy-ma'naviy maktab darajasiga ko'tarildi.

Tasavvuf mohiyatan inson va Yaratganning munosabatini tushuntirishga intiladi. Unda asosiy maqsad – Allohga muhabbat va sadoqat orqali ruhiy kamolotga erishishdir. Bu yo'l esa shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat bosqichlaridan iborat bo'lib, so'fiylar ana shu darajalardan o'tish orqali komillikka erishishni ta'lim qilganlar.

Islom falsafasi asosan aql va mantiqqa tayanar ekan, tasavvuf qalb, muhabbat va ilohiy ilhomni ham falsafiy tafakkur mezoniga qo'shadi. Shu sababli u nafaqat diniy-amaliy yo'nalish, balki falsafiy va axloqiy ta'limot sifatida ham shakllandi. Imom G'azzoliy, Jaloliddin Rumiy,

Bahouddin Naqshband kabi buyuk mutasavviflar bu ta'limotni yanada boyitib, uni insoniy kamolotga eltuvchi yo'l sifatida targ'ib etganlar.

Shuningdek, tasavvuf ijtimoiy-ma'naviy hayotda ham beqiyos o'rin egallagan. U insonlarni halollikka, sabr-toqatga, mehnatsevarlikka va o'zaro mehr-oqibatga da'vat qilgan. Naqshbandiya tariqatining "Dil ba yoru, dast ba kor" tamoyili buning yaqqol ifodasidir. Demak, tasavvuf islom falsafasida inson qalbini yuksaltirish, jamiyatni ma'naviy uyg'otish va axloqiy birlikni ta'minlash vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Islom madaniyatida **so'fiylik** ba'zan **tasavvuf** deb ham ataladi. Bu ularning arab tilidagi umumiy ildizga ega ekanligi bilan izohlanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, "so'fizm" va "tasavvuf" atamalarining ma'nosi atrofida turlicha talqinlar mavjud. Ba'zi xorijiy tadqiqotchilar "tasavvuf" atamasi "kirish" ma'nosida ishlatilishini qayd etadilar. Rene Genonning fikricha, tasavvuf "initiasiya" yoki "ichkariga kirish" deb tarjima qilinadi. Bu "al-haqiqa" ("hayotning ichki haqiqatini") bildiradi va "ash-shari'a" ("buyuk yo'l")ning chuqur qatlamlarini anglash imkonini beradi (René, 2017). Bunday talqin so'fiylarning birodarliklarga birlashganligini ko'rsatadi. XII-XIII asrlar esa so'fiylikning yanada rasmiy va tashkilotli tuzilishga o'tgan davri bilan ajralib turadi (Gallimard, 1973, r.18).

Arab tilida "yo'l" yoki "yo'nalish"ni anglatuvchi "**tariqat**" termini so'fiy uchun haqiqat sari to'g'ri yo'lni ko'rsatuvchi vosita sifatida qaraladi.

So'z **so'fiy** va **tasavvuf**ning kelib chiqishi haqida tadqiqotchilar turli gipotezalarni ilgari surganlar. Jumladan, bir gipotezaga ko'ra, "tasavvuf" so'zi "sauv" (Gazzoli, 1992) – "beg'uborlik, poklik, tiniqlik" ildizidan kelib chiqqan. Shuningdek, u payg'ambar (s.a.v.)ga yaqin yashagan "suffa ahli" deb atalgan "bani-suffa" qabilasi nomidan olingan bo'lishi mumkin (bu qabila nomi esa o'z navbatida "sufan" deb atalgan cho'l o'simligi nomidan kelib chiqqan, bunda "suf" – "jun" ma'nosini bildiradi). Yana bir talqinga ko'ra, u yunoncha "**sophia**" – "donolik" so'zidan ham kelib chiqqan bo'lishi mumkin (Muhammad, 2004, p.50–51). Bu masalada yevropalik va musulmon mualliflar o'rtasida, hatto so'fiylarning o'zlari orasida ham qarama-qarshiliklar mavjudligi diqqatga sazovordir (Michel, 2006, p.88).

So'fiylar va aksariyat musulmon mualliflar fikricha, so'fiylikning ildizlari Qur'onga va Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning hadislariga borib taqaladi. So'fiylikning islom bilan bevosita bog'liqligi, uning islomiy qadriyatlar va imonning ustunlari asosida rivojlangani inkor etilmaydi. Shu bilan birga, tasavvuf birgina shaklda mavjud, deb aytib bo'lmaydi. Islom olamida Qur'on va shariatga to'liq bog'langan tasavvufiy tariqatlar bilan bir qatorda, shariat doirasidan tashqariga chiqib ketuvchi va ba'zi islomiy tamoyillarga zid bo'lgan ichki-ekstremistik qarashlarga ega oqimlar ham uchraydi. Umuman olganda, islom madaniyati va tasavvuf taraqqiyotini o'rganishda ko'plab tariqatlarda boshqa dinlar va falsafiy oqimlar ta'sirini ko'rish tabiiy hodisa sifatida baholanadi. Ammo sof diniy tamoyillar nuqtayi nazaridan bunday tariqatlar musulmonlar tomonidan unchalik ma'qullanmagan.

So'fiylikning tarixiy rivojiga qisqacha nazar tashlansa, tasavvuf tarixida uch asosiy bosqichni ajratish mumkin: **zuhd** (asketizm), **tasavvuf** va **tariqatlar**.

Ko'plab tadqiqotchilar fikricha, asketizm davri islomning ilk davrlariga to'g'ri keladi. Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)dan keyingi davrda fathlar orqali musulmonlar hududlari kengaydi, moddiy hayot yaxshilandi, trofeylar hisobiga musulmonlar farovonligi ortdi va natijada moddiy manfaatlarga intilish kuchaydi. Shu sharoitda bir guruh odamlar sof diniy e'tiqodga sodiq qolib, islom dinining asl tamoyillaridan chiqmagan holda, Payg'ambar yo'lidan yurishni afzal ko'rishdi. Shu davrning xos jihati shuki, payg'ambar davrida mistik hayot tarzi

aslida Payg'ambar (s.a.v.)ning yashash uslubiga ergashish edi, u boshqa ko'rinishda ifoda etilmagan. O'sha davrda "tasavvuf" atamasi hali termin sifatida qo'llanmagan, chunki islom jamiyati hayotning barcha sohalarida payg'ambar so'zlari va xatti-harakatlariga amal qilishni afzal bilgan (Çapolyo, 2013).

Tasavvuf tarixining boshlang'ich bosqichi sifatida qaraladigan davr o'zining ayrim xos jihatlari bilan e'tiborni tortadi. Bu davrda odamlar jamiyatdan chetda yashash, shahvoniy nafs istaklarini inkor etish va ular bilan kurashish, sabr-toqat hamda Allohga suyanish kabi xususiyatlar bilan ajralib turgan. Zohidlik (asketizm) davri VIII asrning o'rtalarigacha davom etadi. Tadqiqotchilar keyingi bosqichni tasavvuf davri deb ataganlar va o'sha davr ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlariga ham e'tibor qaratganlar. Bunga islomning keng hududlarga yoyilishi, boshqa xalqlar va madaniyatlar bilan o'zaro aloqalar va ta'sirlar kiradi.

Tasavvuf mustaqil falsafiy ta'limot sifatida ilk bor Basrada yuzaga kelgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, "so'fiy" unvonini olgan birinchi shaxs Abu Hoshim as-So'fiy bo'lgan. Dastlabki so'fiy xonaqohi ham Abu Hoshim tomonidan Suriyaning Ramla shahrida qurilgan. Abu Hoshimdan boshlangan tasavvuf to'lqini qisqa fursatda ko'plab musulmon mamlakatlariga yoyildi (Schimmel, 2012).

Tabiiyki, tasavvufning keng tarqalishi uning yanada rivojlanishiga olib keldi. IX asrdan boshlab so'fiylik tizimlashtirish bosqichiga kirdi. Bu tizimlashtirish, yuqorida qayd etilgan asketizm davriga nisbatan, bir qator o'ziga xos jihatlarning shakllanishiga sabab bo'ldi. Bir tomondan, tasavvufning tamoyillari, qoidalari va usullari belgilandi, ikkinchi tomondan esa, so'fiy mutafakkirlar tomonidan maxsus maskanlar – xonaqohlar (tekke) barpo etila boshlandi. IX–X asrlar ko'plab buyuk so'fiylar faoliyat yuritgan davr bo'lib, tasavvufga oid ilmiy asarlar yozildi va shu orqali tasavvufning asosiy nazariy poydevori yaratildi.

Tasavvufning diniy-axloqiy mohiyatiga kelsak, islomiy hayotning ma'naviy-axloqiy qadriyatlari tasavvuf tushunchasi bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu diniy-falsafiy ta'limot insonning axloqiy fazilatlarini takomillashtirishni ko'zda tutib, nafsni isloh qilish, uni tarbiyalash, moddiy dunyo va shahvoniy istaklardan voz kechish, Alloh bilan ruhiy birlashishni maqsad qiladi. Ayrim so'fiy ta'limotlarda tasavvuf dunyoviylik bilan doimiy kurash, insonning o'z nafsidan ozod bo'lishi, shaytonga bo'ysunmaslik, shahvat istaklaridan ilohiy iroda yo'lida kechish, tashqi dunyodan ichki dunyoga yuzlanish, hayotiy sinovlarni sir saqlash, ulug'vorlik, muloyimlik va poklik sifatida ta'riflanadi.

So'fiylikning shu qadar jozibador bo'lishining sabablaridan biri uning ilohiy sirlar va bilimlarni o'zida mujassam etuvchi mistik fikr bilan bog'liqligidir. Ma'lum ma'noda, tasavvufdagi sir va mistitsizm moddiy-amaliy holatlarni axloq, ruhiyat (asketizm) va sayr va suluk (axloqiy kamolot yo'li) tushunchalariga qarama-qarshi qo'yadi. Turli diniy va falsafiy ta'limotlarda mistik unsurlar qadimdan mavjudligi esa hamma ma'lum fakt hisoblanadi.

So'fiylar barcha gunoh ko'rinishlariga qarshi kurash olib borganlarini ta'kidlash lozim. Ularning kurashi ko'pincha mo'minlarning, ayniqsa ilmi insonlarning axloqini zaiflashtirishga tahdid solganlarga qarshi qaratilgan edi. Islomning dastlabki davrlarida payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning sahobalaridan biri Abu Zar dunyoviy hukmdorlarni tanqid qilgani uchun ular tomonidan hibsga olingan (Ibn Arabi, 2006, r.33).

Tasavvuf o'zida islom qonunlari (shariat) va haqiqatni birlashtiradi. So'fiylarning e'tiqodicha, agar diniy marosimlar chin qalbdan bajarilmasa, ular foydasizdir. Ba'zilari tasavvufni yashirin ilm (**ilm al-botin**) va moddiy dunyodan voz kechish, gunoh bilan ichki kurash g'oyasi bilan bog'lashadi. Ilm al-botin prinsipi ichki haqiqatni qabul qilish, ya'ni



“Allohdan boshqa hech narsa eslatilmaydi” degan ma’noda talqin qilinadi. Tasavvufda eng oliy mavjudot Alloh hisoblanadi va unga faqat uni sevish orqali yaqinlashish mumkin.

Qabul qilingan qarashlarga ko’ra, mistik-amaliy tafakkur islom, xristianlik va iudaizm olamida, yunon falsafasida, shuningdek braxmanizm va buddizm dinlarida ham turli shakllarda namoyon bo’lgan. Biroq, tasavvufni faqatgina mistitsizm sifatida talqin qilib bo’lmaydi. Tasavvuf va islomdan tashqari mistitsizm o’rtasidagi farq quyidagicha tushuntiriladi: islomiy bo’lmagan mistitsizm tartibsizlik va passivlik xususiyatiga ega. Masalan, bunday oqimlarda shayxga bo’lgan bog’liqlik holati mavjud emas. Tasavvufda muhim o’rin tutgan tsikliklik xususiyati boshqa mistitsizmlarda mavjud emas, chunki murshidlar an’anasi yo’q. Shuningdek, belgilangan vaqtda bajariladigan **vird** va **zikrlar** ham yo’q. Natijada odamlar o’z qobiliyatiga qarab mistitsizm ma’lum o’rinni egallaydi. Islomiy bo’lmagan mistitsizmning yana bir o’ziga xos jihati shundaki, unda ierarxiya mavjud emas, erishiladigan yakuniy maqsad esa **ilm ul-yaqin** (Allohga yaqinlashuv ta’limoti) sifatida talqin etiladi (AIIIMaŞ, 1991).

Islomiy mistitsizm esa boshqa dinlardagi mistitsizmdan farqli ravishda usul va faoliyatga katta ahamiyat beriladi. Har bir so’fiy o’tishi lozim bo’lgan ruhiy yo’l — **sayr va suluk**, murshid rahbarligi ostida boshlanishi va davom etishi kerak. Shu nuqtai nazardan shayx (murshid) markaziy shaxs sifatida zikr, riyoziyot va boshqa rituallarning tartibi hamda davomiyligini belgilaydi. Tasavvufda shuningdek qat’iy **ierarxik tuzilma** mavjud bo’lib, unda har kimning o’rni aniq belgilangan. Agar boshqa ta’limotlarda mistitsizmning cho’qqisi **ilm ul-yaqin** bo’lsa, so’fiylarning erisha oladigan eng oliy darajasi **haqq ul-yaqin** (ilohiy haqiqat bilan to’liq birlashish) hisoblanadi (СВЪВСЮŞ1И, 2009).

“**Tasavvuf**” so’zining ilk qo’llanishi o’z davrining mashhur so’fiyi Maruf Karxiy nomi bilan bog’lanadi. So’fiy tafakkuriga “ma’rifat” (ma’naviy ma’rifat) tushunchasini olib kirgan Zunnun Misriy, tasavvuf holatlarini o’rgangan Sari as-Saqatiy nomlari ham mashhurdir. Asketizm va tasavvufga yangi tushuncha va mezonlarni olib kirganlardan biri Bayoziyid Bistomiy hisoblanadi (Uİra2, 2019).

Dastlabki tasavvuf davriga oid Bayoziyid Bistomiy, Junayd Bag’dodiy kabi so’fiylarning g’oyalari keyinchalik Abu Homid al-G’azzoliy tomonidan tizimlashtirilib mukammallashtirildi. Tasavvufning falsafiy asosini yaratgan Ibn Arabi esa tasavvuf tarixidagi eng muhim siymolardan biri hisoblanib, **vahdat ul-vujud** (borliq birligi) nazariyasini yaratdi. Bu nazariya jahon falsafiy merosida chuqur iz qoldirdi. Ibn Arabining qarashicha, Allohni anglash uchun aql va falsafa yetarli emas, balki bu yo’lda eng zarur bo’g’in – **muhabbat**dir. Shu sababli, uning vahdat ul-vujud nazariyasi tasavvufiy an’anada asosiy ta’limotga aylangan (Morewedge, 1995).

Tasavvuf tizimining rivojlanishidagi uchinchi bosqich – **tariqatlar davri** XII asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Bu davrda tasavvufning qoidalari va usullariga o’ziga xos yangiliklar kiritgan mashhur so’fiylar tomonidan turli tariqatlar tashkil etilgan. Keyingi tasavvufiy taraqqiyot aynan ushbu tariqatlar bilan chambarchas bog’liq bo’lib, ular bugungi kunga qadar saqlanib qolgan. Islom madaniyatida katta o’rin tutgan yirik tariqatlarga: **Yassaviya, Rifoia, Kubraviya, Suhrawardiya, Shaziliya, Bektashiya, Mawlaviya, Naqshbandiya, Hurufiya, Xalvatiya** tariqatlarini misol keltirish mumkin.

#### Xulosa

Tasavvuf islom falsafasining eng chuqur va ta’sirchan yo’nalishlaridan biri sifatida nafaqat diniy hayot, balki insoniyatning ma’naviy-madaniy taraqqiyotida ham beqiyos o’rin



tutadi. U islomning asosiy manbalari – Qur'on va Hadisi sharifga tayangan holda inson qalbini poklash, nafsni tarbiyalash va Allohga yaqinlashish g'oyalarini ilgari surdi. Tasavvufning mohiyati, avvalo, insonning o'zini anglash, ruhiy kamolotga erishish va hayotni ilohiy haqiqat bilan uyg'unlashtirishdan iboratdir.

Tarixiy rivojlanish jarayonida tasavvuf uch bosqichni bosib o'tdi: zohidlik (asketizm), tasavvuf va tariqat davrlari. Har bir davrda so'fiylik yangi mazmun kasb etib, nafaqat individual ruhiy tajriba, balki keng ijtimoiy-madaniy hodisaga aylandi. Ayniqsa IX–X asrlardan boshlab so'fiylik tizimlashtirilgan ta'limot darajasiga ko'tarilib, ilmiy-falsafiy asarlar, maxsus maktablar va tariqatlar orqali yanada boyidi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Frithjof Schuon, Islomni anglash (Tarj.: Mahmut Kanik), Istanbul, 1999, 203-bet
2. Husayn Voiz Koshifiy «Futuvvatnomai sultoniy» A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. Najmiddin Komilov tarjimasi
3. Ja'far Xolmo'minov. Vahdat ul-vujud falsafasi va Naqshbandiya ta'limoti. Monografiya. Toshkent "Tafakkur" 2020
4. Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi // Academic Research in Educational Sciences, 2 (Special Issue 1), 395-401 P.
5. Komilov N. Tasavvuf. - T.: Movarounnahr" - "O'zbekiston", 2009. - B.3
6. Majid Fahri, Islom falsafasi tarixi (Tarj.: QosimTurxon), Istanbul, 2004, 278-bet.
7. Po'latov, Sh.N., Hindistonda pedagogik ta'limning rivojlanish bosqichlari. // "SCIENCE AND EDUCATION" Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 21-27 P.

